



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH
VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA
TASHXIS MARKAZI**



Inklyuziv sharoitda ta’lim olayotgan o‘quvchi-qizlarning maktabga moslashishi uchun maxsus psixologik korreksion rivojlantirish dasturi

(boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda psixologlar uchun)



Toshkent 2022-yil

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy metodik Kengashining 2022-yil 28-iyundagi 2-sonli yig‘ilish qarori bilan ma’qullangan.

Tuzuvchilar:

L. Gaynutdinova	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori.
S.Mo‘minov	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi metodisti.
S.Alimxodjayeva	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ta’lim sifatini psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘limi metodisti.
G.Alimova	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti.

Taqrizchilar:

X.Usmanova	ps.f.n., dotsent. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi rahbari.
K.Jo‘raboyev	Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktorining birinchi o‘rinbosari.

Ushbu dastur umumta’lim muassasalarida inklyuziv hamda boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda ta’lim olayotgan o‘quvchi-qizlarning maktabga moslashishi uchun maxsus psixologik korreksion rivojlantirish maqsadida maktab amaliyotchi psixologlari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan. Maktabga qabul qilingan yetti yoshli qizlar hamda istisno tarzida 9 yoshli qabul qilgan o‘quvchi qizlari bilan o‘tkaziladigan psixokorreksion rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarorida belgilangan vazifalarni Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarorlarining “Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida” gi nizomining 1-ilovasiga muvofiq 2021-2022 o‘quv yilidan respublikamiz miqyosida umumta’lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv ta’lim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflariga o‘quvchilar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash maqsadida umumta’lim maktablari uchun belgilangan yosh me‘yorida ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi.

Maktabda inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, aqliy rivojlanishi darajasi, somatik va asab-ruhiy sog‘lig‘i holatiga muvofiq tashkil etiladi. Inklyuziv ta’limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag‘rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta’limning maqsadi — alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat deb belgilanadi.

Vasifalari esa:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;
- ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;
- barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;
- o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Bola maktabga borgan paytidan boshlab moslashishi jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi. Ko‘pgina hollarda bolalarda bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ijtimoiy moslashuvning shakllanmaganligi ta’lim jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Hattoki aqlan yetuk, jismonan sog‘lom bola ham maktab talablariga moslashishda qiynaladi. Bu talablar 1-sinfqa qabul qilingan boladan ko‘p mehnat va irodani talab etadi. Shu bilan bir qatorda maktab amaliyotchi psixologi va sinf rahbari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Bunda bolalarning maktab sharoitiga moslashish jarayonini o‘rganish muhim sanaladi

Ushbu dastur umumta'lim muassasalarida inklyuziv hamda boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchi-qizlarning maktabga moslashishi uchun maxsus psixologik korreksion rivojlantirish maqsadida e'tiboringizga havola etilmoqda.

Dasturdan o'rin olgan mashg'ulotlar o'quvchi qizlarning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o'qish, yozish malaka va ko'nikmalarini boyitib borish kabi aqliy imkoniyatlarining ta'lim talablariga munosib tabiiy shakl, o'yinlar yordamida rivojlantirib borishni ta'minlaydi.

Inklyuziv sharoitda ta'lim olayotgan o'quvchi-qizlarning maktabga moslashishi uchun maxsus psixologik korreksion rivojlantirish uchun maxsus mashg'ulotlar berilgan.

Albatta, mashg'ulotlarni qo'llashda psixolog, pedagog, ota-onalar faqat ushbu mashg'ulotlar bilan cheklanmasdan etnik psixologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda qo'shimcha korreksion mashg'ulotlardan foydalanishlari ham mumkin.

Mashg'ulotlarni o'tkazib borish jarayonida o'quvchilar bilan samimiy, erkin muloqotda bo'lish, ularni shoshirmasdan to'g'ri tushuntirib borish, o'yin tariqasidagi tabiiy muhitni yaratish, bolalarning qobiliyatlarini xolisona tarzda baholash muhim omillardan biri bo'lib sanaladi. Bolalarning maktabga psixologik moslashuvi va rivojlanish dinamikasini o'rganish maqsadida ushbu korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlarining natijalariga tayanish mumkin.

Korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlar majmuasi asosida amalga oshirilgan ishlar 1-sinfga qabul qilingan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchi qizlarning yanada chuqur bilim olishda malaka va ko'nikmalar hosil qilishiga turtki bo'ladi degan umiddamiz. Shuningdek, amaliyotchi psixologlarga o'z amaliy faoliyatlarini tashkil etishda yordam berib, ularning psixologik metodikalar banklarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

INKLYUZIV SHAROITDA TA'LIM OLAYOTGAN O'QUVCHI-QIZLARNING MAKTABGA MOSLASHISHI UCHUN MAXSUS PSIXOLOGIK KORREKSION RIVOJLANTIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGINING O'RNI

Umumta'lim muassasasiga inklyuziv ta'lim sinfi hamda boshlang'ich tayanch korreksion sinfga qabul qilingan o'quvchi qizlarni har qanday kamsitishlar va ularga g'ayriodatiy qarashlarni oldini olish uchun maktab psixologining faoliyati diqqatga sazovordir. Maktab psixologi birinchi navbatda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchi kelishi ko'zda tutilgan sinfdagi sog'lom o'quvchilar bilan tushuntirish ishlarini olib borishi, bukelayotagn o'quvchi ham xuddi sizlarga o'xshab birgalikda ta'lim olish huquqiga ega ekanligi, undagi turli xil muammolarga e'tibor bermasdan yordam berish lozimligi hamda do'stona munosabatlarni o'rnatish haqida tushuntiradi.

Ikkinchi dolzarb masala sog'lom bolalarning ota-onalariga tushuntirish ishlarini olib borish. Ya'ni endi ushbu sinfga alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar orqasida qizlar ham bo'lishi, ularni sog'lom o'quvchilarning ta'lim-tarbiya olishiga hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, aksincha ijobiy tomonga o'zgarishi, shukronalik hissi uyg'onishi, bunday bolalarning ota-onalarini ham jamoaga qo'shish va ularni odatiy holatda qabul qilish haqida maslahatlarini beradi.

Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatishi ya'ni:

- O'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;
- tengdolariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;
- sog'lom o'quvchilarda qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish–insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;
- o'quvchilarda atrofdagi insonlarga, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat tarbiyalanadi;
- jamoat joylarida han yordamga muhtoj insonlarga e'tiborsizlik qilmaydigan shaxsga aylanishi haqida atroflicha aytib o'tiladi.

Maktab psixologi - Maktab psixologi inklyuziv ta'lim sinfi hamda boshlang'ich tayanch korreksion sinfdagi har bir o'quvchining psixologik-pedagogik tavsifi bilan tanishib chiqadi;

- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan qiz-o'quvchilarning ruhiy, jismoniy holatidan kelib chiqqan holda bu bolalar bilan yakka va kichik guruhda psixologik moslashuv treninglarini olib boradi;

- inklyuziv sinf o'quvchi-qizlari bilan yalpi psixologik o'yinlar va mashg'ulotlar olib boradi;

- sinfdagi ota-onalar bilan sinf jamoasida do'stona munosabat muhitini shakllantirishda ota-onaning o'z farzandi bilan olib borilishi zarur bo'lgan ishlar yuzasidan maslahatlar olib boradi;

- o'quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o'rganish va ularni tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan qiz-o'quvchilarning ota-onalari esa o'quv yilining boshida dars jarayonida qatnashib turishi to o'quvchini dars mashg'ulotlariga moslashib olguncha dars jarayonida qatnashishi lozim. Farzandini sog'lom bolalar bilan do'stona munosabatga kirishguncha yordam berib tushishini hisobga olishi lozim.

Inklyuziv ta'limda tyutorning o'rni va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi

hamda Xalq ta'limi vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarining pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalariga birlashtirish to'g'risida" 2020-yil 23-dekabrda 56-q/q, 55-qq-sonli buyrug'ida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasasining defektologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan yuqori kurs talabalarini xalq ta'limi tizimida 2021-2022 o'quv yilidan inklyuziv ta'lim tashkil etilgan umumta'lim maktablarida pedagogik amaliyotlarini o'tash uchun jalb etish tizimi yo'lga qo'yildi va ular umumta'lim maktablarida **"tyutor"** nomi bilan ataladi.

Inklyuziv ta'lim hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, u barcha maktab jamoasini, maxsus o'qituvchini, psixologlarni, keng jamoatchilik hamda tyutorlarni qamrab oladi. Ularning orqasida hozirgi kunda yangi lug'at so'zi hamda yo'nalish sifatida tyutor jumlasini kirib kelmoqda. Avvalambor, "tyutor" tom ma'noda ustoz, murabbiy, instruktor-yo'l ko'rsatuvchi ma'nolarida qo'llaniladi. Tyutor birinchi navbatda, ma'lum bir sohaning mutaxassisi bo'lib, uning asosiy vazifasi talabaga muayyan bilim va ko'nikmalar berishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) yaqindan ko'maklashadi. Inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalariga tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega volontyorlar va oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi yuqori kurs talabalarini pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilinadi. Talabalarni inklyuziv ta'lim sinflari joriy qilingan maktablarga jalb etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Talabaning umumta'lim maktablaridagi pedagogik amaliyot davrida amaliyotchi rahbar sifatida umumta'lim maktabining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tayinlanadi. Talabani amaliyotni tugatganlik haqidagi ma'lumotnoma umumta'lim maktabi rahbari tomonidan beriladi. Tyutor:

- ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan muammolar va qiyinchiliklarni engishga ko'maklashadi;

- ta'lim jarayonining individuallashtirish (individual ta'lim dasturlarini tuzish va sh.k.) uchun sharoitlar yaratadi;

- o'quvchilarning o'quv dasturlarini davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq darajada o'zlashtirishga ko'maklashadi, bolaning o'quv yuklamasi va imkoniyatlarini tahlil qiladi, tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar beradi;

- ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim oluvchilarning ta'limiy qiziqishlarini aniqlash, shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan hamkorlikni o'rnatadi.

Tyutor boshlang'ich sinf o'qituvchisi hamda maxsus o'qituvchiga bevosita yordam beradi. Inklyuziv sinf o'qituvchisi dars hamda mashg'ulot davomida zerikib yoki toliqib qolsa bolani aylantirib keladi. Korreksion mashg'ulotni tashkil qilishda ham ishtirok etadi.

1-mashg'ulot

Antonim so'zlar

Bu o'yin mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi. O'yinni individual tarzda ham, guruh bilan ham o'tkazish mumkin. O'yin sharti quyidagicha: o'qituvchi yoki psixolog bolaga bir so'zni aytadi, bola shu so'zning ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan so'zni topib aytishi kerak. Masalan: katta-kichik, issiq-sovuq, achchiq-shirin, qoronqu-yoruq, qattiq-yumshoq, keng-tor, uzoq-yaqin, yaxshi-yomon va hokazo. Odatda bolalar o'yin boshida biroz qiynaladilar, aytilgan so'zga javoban antonim so'zni emas, sinonim so'z bilan javob beradi, masalan: katta-baland, uzun-uzoq kabi. Ammo o'yinning mohiyatini tushunib olganlaridan so'ng bolalar yaxshi o'ynay boshlaydilar. O'yin bir necha marta o'tkazilganidan so'ng bolalar abstrakt tushunchalarni ham osonlik bilan tushunadi va javob beradi. Masalan: chaqqon-yalqov, ishchan-dangasa, odobli-odobsiz kabi so'zlarga ham tez javob topa oladi.


2-mashg'ulot

“Xayolga tolish” (emotsiyani boshqarish uchun o'yin)

Sayohatchi stolga o'tiradi va diqqat bilan kartani o'rganadi. U sayohat rejasini o'ylaydi. Ifodalanishi lozim bo'lgan harakatlar: chap qo'li tirsagi stolga suyangan va boshini ushlab turibdi, o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'i tasavvurdagi karta ustida harakatlanyapti. Mimika: yengil qisilgan ko'zlar, pastki labi tishlangan.

3-mashg'ulot

Bola ushbu chiziqlarni birlashtirib chiqishi lozim.



4-mashg'ulot


Umumlashtirish

Bu o'yin mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi. O'yin sharti quyidagicha: psixolog bolaga bir guruhga mansub uchta yoki to'rtta predmet nomini aytadi, bola bu predmetlarning umumiy nomini aytishi kerak, masalan: ot, sigir, qo'y, it - uy hayvonlari;

tarvuz, handalak, qovun, qovoq – poliz ekinlari; karam, pomidor, kartoshka, piyoz – sabzavotlar; oy, quyosh, yulduzlar - osmon jismlari va shu kabilar.

5-mashgʻulot

Bola ushbu chiziqlarni birlashtirib chiqishi lozim.



6-mashgʻulot

Toʻrtinchisi ortiqcha

Bu oʻyin ham rasmlarsiz oʻynaladi. Bolaga bir guruhga kiruvchi uchta predmet va boshqa guruhga mansub bitta predmet nomi aytiladi. Masalan, atirgul, boychechak, binafsha, qoʻziqorin. Bola ular orasidan ortiqchasini aytganidan soʻng undan fikrini asoslab berishi soʻralishi kerak. Bu oʻyinlar bolaning tafakkuri rivojlanishiga yordam berish bilan birga nutqning oʻsishiga ham yordam beradi.

Oʻyin-mashgʻulotlar individual tarzda oʻtkazilsa ham yaxshi samara beradi, guruhda musobaqa koʻrinishida oʻtkazilsa bolalarning qiziqishi yanada ortadi.



7-mashgʻulot

“Ha va yoʻq” (Huquq va burchni muvofiq anglanilishi uchun mashgʻulot)



Koʻrsatma: Oramizda kimning diqqatini yaxshiligini aniqlashga qarakat qilamiz. Sizlarning har biringizga “Ha” va “yoʻq” javoblari oldindan aniq boʻlgan savollar beriladi. Masalan: “Maktabga boriging keladimi”, “Bogʻchaga qaytib boriging keladimi” va h.k. Javob berayotgan bola faqat teskarisini aytishi kerak. Kim adashsa oʻyindan chiqadi.

8-mashg'ulot

Bola ushbu nuqtalarni birlashtirib chiqishi va qanday shakl hosil bo'lganligini aytishi kerak.



9--mashg'ulot



10-mashg'ulot Taqqoslash

Bu o'yin mashg'ulotda bolaga ikkita bir biriga o'xshash predmet beriladi va ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni topish kerakligi aytiladi. Bola narsalarni taqqoslab ko'rishi, o'xshashlik va farqni topishi kerak. Masalan: qalam va ruchka orasidagi farqni va o'xshashlikni. Keyin bolaga bir-biridan mutloqo farq qiluvchi predmetlar beriladi va ular o'rtasidagi bog'liqlikni topish kerakligi aytiladi.



11- mashg'ulot

«Baliq, qush,- eshik»

Bolalar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchilar navbatma-navbat har bir bolaga: "Baliq, qush, eshak, baliq _____" so'zlarni ayta boshlaydi. Qaysi bolada sanoq tugagan bo'lsa, u tezlik bilan (olib boruvchi uchgacha sanagunga) baliq so'zini aytish kerak. So'zlar qaytarilmasligi kerak. Agar javob to'g'ri bo'lsa, olib boruvchi o'yinni davom ettiradi. Agar noto'g'ri bo'lsa yoki so'zlar takrorlansa (javobni kechikishi ham xatoga o'tadi), bola uyindan chiqadi. Bitta o'yinchi qolguncha o'yin davom etadi, Mashq mustaqil fikrlash va xotirani rivojlantiradi.

12- mashg'ulot

Bola ushbu nuqtalarni birlashtirib chiqishi va qanday shakl hosil bo'lganligini aytishi kerak.





13-mashg'ulot

O'zaro bog'liqlik

Bolalarga rasimli kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, birinchi bola rasmdagi predmet haqida gapirib beradi. "Masalan: bu olma. Olma bog'da o'sadi va mevalarga kiradi. Uni bolalar juda yaxshi ko'rishadi". Keyin ikkinchi bola ham o'zidagi predmet haqida gapiradi va o'zidagi predmet bilan birinchi boladagi predmetni o'zaro bog'liqlikni aytishi kerak. "Masalan: Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Uni bolalar yaxshi ko'rishadi. Quyosh isitib tursa olma va boshqa mevalar pishadi". Keyin uchinchi bola o'zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o'zidagi predmet orasidagi bog'liqlikni topishi kerak. O'yin shu tartibda davom etadi.

14- mashg'ulot

Bola ushbu nuqtalarni birlashtirib chiqishi va qanday shakl hosil bo'lganligini aytishi kerak.



15- mashg'ulot


Bolaga qog'oz, rangli qalamlar beriladi va bir qator qilib 10 ta uchburchak chizish kerakligi so'raladi. Bola chizib bo'lganidan keyin ko'rsatma bir marta aytilishi, shuning uchun diqqat bilan quloq solib turishi kerakligi to'g'risida ogohlantiriladi: "Diqqat bilan eshit, qizil qalam bilan uchinchi, yettinchi va to'qqizinchi uchburchakning ustiga chiz". Agar bola birinchi topshiriqni bajara olsa unga keyingi topshiriqni bajarish taklif qilinadi. Topshiriq bolaning bajara olishiga qarab murakkablashtirilib boriladi. Mashq ixtiyoriy diqqatni rivojlantiradi.

16- mashg'ulot


Bolaga gazeta yoki jurnaldan olingan kichikroq matn beriladi va unga diqqat bilan qarab biror bir harfni, masalan "a" harfini ma'lum bir vaqtda rangli qalam bilan belgilab chizish taklif qilinadi. Bola bajarib bo'lganidan so'ng vaqt va xatolar miqdori yozib qo'yiladi. Natijalar har kuni jadvalda qayd qilinib boriladi. Samaradorlikning oshib borishi bolaga ko'rsatiladi. Mashq diqqatning barqarorligini rivojlantiradi.

17- mashg'ulot

Sonlar bilan tanishish. 1 soni bor figuralarni bo'yab chiqing.




18-mashg'ulot



Bola namunaga qarab ushbu (shunga o'xshash bir nechta shakllar bolaga qaychi bilan beriladi) shaklardan biror bir buyumni yasashi kerak.

19-mashg'ulot

2 raqamini rangli qalam bilan bo'yab chiqing va rasmda nima tasvirlanganligini ayting.





20- mashg'ulot

Bolaga geometrik figuralar chizilgan varaq beriladi va har birini rangli qalam bilan bo'yash kerakligi aytiladi. Har bir figura tartib bilan bo'yalishi kerakligi, vaqt cheklanmaganligi to'g'risida ogohlantiriladi. Bolada beparvolik, zerikish namoyon bo'la boshlashi bilan mashg'ulot to'xtatiladi. 6-7 yoshli bola 15-20 figurani tartib bilan bo'yay oladi. Mashq ixtiyoriy harakatni yaxshilaydi.


21- mashg'ulot

Davom ettiring



22-mashg'ulot

3 soni bor geometrik figuralarni bo'yang va qanday tasvir aks etganligini ayting.



23-mashg'ulot

Bola hammaga ma'lum bo'lgan she'r yoki ertakni so'zsiz, pantomimika yordamida aytib berishi kerak.

Qolgan bolalar uni nimani aytayotganini topishi kerak.


24-mashg'ulot

4 soni bor geometrik figuralarni bo'yab chiqing va qanday tasvir aks etganligini ayting

		4		2	3		4		1
	4	4	4			4	4	4	
4	4	1	4	4	4	4	1	4	4
2	4	4	4			4	4	4	1
1			4			4			
	1	2		4	4	1		1	2
2		1		4	4		1		
1		3		4	4		2		1

25-mashg'ulot

Gullarni guruhlarga ajratish mumkinmi, Siz qanday belgisiga qarab guruhga ajratgan bo'lar edingiz.



26-mashg'ulot

“Nima qilishi kerak” (Emosiya va harakatni boshqarish uchun). Bu o‘yin uchun muammoli vaziyat syujeti ifodalangan bir nechta rasm kerak. Masalan:

A) Bolalar meva terayotgan edi. Bir qizcha shunchalik ko‘p meva terdiki, ularni qo‘lida tutib tura olmay qoldi.

B) bolalar o‘ynayotgan edi, bir bolaga o‘yinchoq yetmay qoldi..


V) bola yig‘layapti.

Bola vaziyatdan chiqib ketish yo‘lini tanlay oladigan rasmlarni tanlash kerak.

27-mashg‘ulot **Minorachalarni yasa.**


Bolalarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan har xil o‘lchamdagi tayoqchalar beriladi. Tayoqchalarni kartondan yasash mumkin. Bola ushbu tayoqchalardan shakllar va minoralar yasashi kerak.

Namuna:



28-mashg'ulot.

5-raqami bor figuralarni bo'yab chiqing. Qanday rasm hosil bo'lganini ayting.



29-mashg'ulot

"Gapni to'ldir" (odamovilikni yengish uchun mashg'ulot)

Bola quyidagi gaplarni to'ldirishi kerak:

Menxohlayman.

Menqila olaman.


Men bajara olaman.

Men erisha olaman.

Boladan javoblarni sharhlab berishni so'rash mumkin.


30-mashg'ulot

6 raqamini rangli qalamda bo'yang va qanday tasvir aks etganligini ayting









31-mashg'ulot






Rasmning ikkinchi qismini chizing.



32-mashg'ulot


Nuqtalarni birlashtirib chiqing.






33-mashg'ulot

Rasmning ikkinchi qismini chizing.




34-mashgʻulot


7 sonini boʻyab chiqing va qanday tasvir aks etganligini ayting.



35-mashgʻulot

Nuqtalarni birlashtirib chiqing.





Sizningcha mashina qaysi tomonga qarab harakatlanishi mumkin.


36-mashgʻulot

8-sonini rangli qalam bilan boʻyab chiqing

7	8	8	8	8	1
4	8	4	5	2	
6	8	2	3	4	6
	8	8	8	8	
5	2	1	3	8	6
4		3		8	3
2	8	8	8	8	1

37-mashg'ulot

9- sonini rangli qalam bilan bo'yab chiqing






38-Mashg'ulot.

“Umumlashtirish”


Maqsad: Diqqatning turg'unligi, tasavvurlar aniqligi, mantiqiy fikrlashning rivojlanganlik darajasini aniqlash.

Ko'rsatma: Rasmlarni diqqat bilan ko'rib chiq. Ularni shakliga qarab birlashtir va guruhlarga ajrat. Ularni qanday belgilarga ko'ra guruhlarga ajratganingni aytib ber.



39-Mashg'ulot.

Cho'plardan shunga o'xshash figuralar tuz.



40-Mashg'ulot.


“Qaysi harf yetishmaydi”

Maqsad: Diqqat, xotirani rivojlantirish.

Bolalarga ixtiyoriy ravishda 8 yoki 10 ta harf ko'rsatiladi. Eslab qolishlari uchun 10 sekund vaqt beriladi. Bolalarga ko'rsatilmadan bitta harf olib qo'yiladi. Bolalar qaysi harf etishmayotganligini aytishlari kerak. Agar bolalar topshiriqni osonlikcha bajarsalar u holda vazifani murakkablashtirish ya'ni bitta emas balki 2-3 ta harfni olib qo'yish mumkin.

41-Mashg'ulot.

10 raqamini rangli qalam bilan bo'yang va qanday tasvir ifodalanganligini ayting.



42-Mashg'ulot.

“Qaysi harf yetishmaydi”

Maqsad: Diqqat, xotirani rivojlantirish.

Bolalarga ixtiyoriy ravishda 8 yoki 10 ta harf ko'rsatiladi. Eslab qolishlari uchun 10 sekund vaqt beriladi. Bolalarga ko'rsatilmadan bitta harf olib qo'yiladi. Bolalar qaysi harf etishmayotganligini aytishlari kerak. Agar bolalar topshiriqni osonlikcha bajarsalar u holda vazifani murakkablashtirish ya'ni bitta emas balki 2-3 ta harfni olib qo'yish mumkin.

43-Mashg'ulot.

Tayoqchalar

Maqsad: Kichik qo'l motorikasini va bolalarning birgalikda jamoaviy hamkorligini rivojlantirish.

Tayoqchalar (oddiy sanoq cho'plaridan foydalanish mumkin) stolga yoki gilamga sohib tashlanadi. O'yin ishtirokchilari navbat bilan cho'plarni yig'a boshlaydilar va bunda o'ta ehtiyotkorlik bilan cho'plarni terib olish talab qilinadi, ya'ni bir cho'pni olayotganda ikkinchi cho'pni joyidan siljitmaslik kerak. Agar bu holat yuz bersa o'yin navbati boshqa bolaga o'tadi. Ishtirokchilardan qaysi biri tayoqchalarni eng ko'p yig'sa u g'olib bo'ladi.

44-Mashg'ulot.

Tashrif kartochkasi

Maqsad: Guruhdagi hamkorlik birdamlikni rivojlantirish.

Bolalar aylana shaklida o'tiradilar va bir birlariga biron bir kichkina predmetni uzatib, o'zlari haqida ma'lumot beradilar. Yani birinchi ishtirokchi o'z ismini aytadi. (Mening ismim Anvar). Ikkinchi ishtirokchi ham o'z ismini aytib yana biron bir ma'lumot beradi, masalan yoshi nechadaligini aytadi (Mening ismim Vazira, yoshim yettida). Uchinchi ishtirokchi ismini va yoshini aytadi va yana o'zi haqida qandaydir ma'lumot beradi, masalan bo'sh vaqtlaringda nima bilan shug'ullanishi haqida (Mening ismim Jasur, yoshim yettida, men kitob o'qishni yaxshi ko'raman). To'rtinchi ishtirokchi (Mening ismim Jasur, yoshim oltida, men ham bo'sh vaqtlarimda kitob o'qiyman, lekin menga ko'proq rasm chizish yoqadi va hokazo).

45-Mashg'ulot.

Qarama qarshi So'zlarni top.

Men baland deyman

Sen esa deysan

Men uzoq deyman

Sen esa deysan

Men chapga boraman

Sen esa borasan

Bu yerda keng yo'l bor.

Bu yerda esa yo'l bor.

46-Mashg'ulot.

Belgilar bo'yicha ajrat

Stullar aylana shaklida ishtirokchilar sonidan bitta kam qilib joylashtiriladi. Hamma stullarga o'tiradi. Yetakchi aylana markaziga turadi va o'tirganlardan ayrimlariga tegishli bo'lgan belgilarni aytadi. Aytilgan belgilari bo'lgan bolalar shu zahotiyloq o'rinlaridan turib boshqa stullarga o'tirib olishga harakat qiladilar. Masalan, bugun maktabga soat taqib kelganlar, qora poyafzal kiyib kelganlar va hokazo.

Yetakchi o'yin davomida sinfdoshlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi uchun "kitob o'qishni, rasm chizishni, multfilm tomosha qilishni yaxshi ko'radiganlar", kabi belgilari bor o'quvchilar chiqsin degan shartlarni ham qo'llashi mumkin.

47-Mashg'ulot

"Yil fasllari"

Bolaga 2-rasm ko'rsatiladi va ushbu rasmlarga diqqat bilan qarab, rasmning ha bir qsmida yilning qysi fasllari tasvirlanganligi haqida so'raladi. Topshiriqni bajarish uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Ushbu berilgan vaqt mobaynida bola nafaqat yil fasllarini aytib berish, balki nima uchun ekanligini va fasllarning belgilarini ko'rsatib bera olishi va ushbu qismda aynan mana shu faslga tegishli ekanligini asoslab berishi kerak.




48-Mashg'ulot

“Guruhlarga bo‘lib ko‘rchi”

Bolaga 5-rasmdagi tasvirlar ko‘rsatilib, quyidagicha topshiriq beriladi:






Diqqat bilan ushbu rasmdagi tasvirlarni ko‘rib chiq va ularni iloji boricha ko‘p guruxlarga bo‘lib chiq. Har bir guruhga, umumiy belgisi bir xil bo‘lgan figuralarni kiritish va har bir figuraning nomini ayt, hamda qanday belgilar asosida bo‘lib chiqqaningni tushuntirib ber.



49-mashg'ulot

“Konturlarni birlashtirish” metodikasi.


Bolalarga 6-7 rasmlar ko'rsatiladi va ushbu metodikadagi topshiriqning maqsadi tushuntirib beriladi, ya'ni qalam yoki ruchka yordamida imkoni boricha tez va aniq chap tomondagi konturlarni o'ng tomonda berilgan rasmlarga ko'chirib chiqish zarur. Bunda bolani chiziqlarni to'g'ri chizganligiga va figuralarning burchaklarini aniq birlashtira olishiga e'tibor qaratish zarurdir. Topshiriq bajarib bo'lingandan so'ng vazifaning toza, aniq va tezligi baholanadi.



50 -Mashg'ulot

“Tasvirlarni ko‘chirish” metodikasi.

Topshiriqni mohiyati shundan iboratki 10 rasmda ung tomondagi maxsus tayyorlab qo‘yilgan kvadratlar ichiga, shu rasmdagi, chap tomonda berilgan kataklar ichidagi tasvirlarni ko‘chirish kerak. Buning uchun bolaga qora flamaster berilib, quyidagicha ko‘rsatma beriladi. “O‘ng tomondagi kataklarga, aynan chap tomondagi figuralarga o‘xshash rasmlarni chizish kerak. Bunda iloji boricha toza va buyaladigan joylarda bo‘shliq qoldirmaslikka hamda figuralar konturidan chiqib ketmaslikka harakat qilish kerak”. Topshiriqni bajarishga ajratilgan vaqt 5 daqiqa.



51 -Mashg'ulot


“Nuqtalarni eslab qol va o‘z joyiga qo‘yib chiq”

1 - rasmda ko‘rsatilgan 8 ta 4x4 hajmdagi katakchalariga har xil miqdordagi nuqtalar qo‘yilgan kvadratlar hamda 2 - rasmda berilgan 8 ta 4 x 4 hajmli kataklari bo‘sh bo‘lgan kataklardan iborat.

1 - rasmdagi 8 ta kvadratlar qirqib olinib, yuqorisidagi raqamiga muvofiq ustma - ust joylashtiriladi. Bunda eng yuqorida katakchalaridagi nuqtalar soni eng kam bo‘lgan kvadrat (1-kvadrat), hammadan pastda esa katakchalarida nuqtalar miqdori eng ko‘p bo‘lgan kvadrat (8-kvadrat) joylashadi. Bolaga quyidagi ko‘rsatma beriladi: "Hozir biz sen bilan o‘yin o‘ynaymiz. Men senga har xil katakchalarni ko‘rsataman, sen ulardagi nuqtalar qayerda joylashganini yaxshilab ko‘rib olgin.

Keyin bu nuqtalarni bo‘sh katakchalarga chizib berishing kerak bo‘ladi". Shundan so‘ng bolaga 8 ta kvadratning har biri 2 sekund muddat davomida ko‘rsatiladi. Har qaysi namoyish etilgach, bolaga 2 - rasmda berilgan bo‘sh kvadratning biriga 15 sekund ichida ko‘rsatilgan

kvadratdagi nuqtalarni qo'yib chiqish taklif etiladi. Mazkur amal 8 ta kvadratning har biri bilan birma - bir bajariladi.



52 -Mashg'ulot

His-tuyg'ular.

Maqsad: guruhda sog'lom psixologik muhitni yaratish, bolalarni turli his-tuyg'ular bilan tanishtirish.

"Piktogramma" mashqi.

Piktogrammalar bilan ishlash (quvonch, qo'rquv, jahli chiqmoq, nafrat, xafa bo'lmoq, hayron bo'lmoq, uyalmoq).

Boshlovchi bolalarga savol beradi:

Qaysi multfilm yoki ertak qahramonlari senga ko'proq yoqadi. Sen ko'pincha qanday holatda bo'lasan. Do'sting qanday holatda bo'ladi. O'qituvching qanday holatda bo'ladi.

So'ngra har bir bola berilgan piktogrammalar ga gavda chizadi, kiyimini berilgan piktogrammada tasvirlangan hissiy holatga mos keladigan rangda bo'yaydi.

"Mitti odamchalar" mashqi.

Bolalarga xafa, quvnoq, xotirjam, jahldor, hayratlangan, biror narsadan qoʻrqqan mitti odamchalar tasvirlangan rasmlar koʻrsatiladi va shu kayfiyatlarni ranglar orqali ifodalash taklif etiladi. Muhokamada boshlovchi bolaning nima uchun aynan shu rangni tanlaganiga eʼtibor beradi.

“Kayfiyatlar lotosi” mashqi.

Bu oʻyinni oʻtkazish uchun turli mimikalar tasvirlangan hayvonlar rasmlar toʻplami kerak boʻladi (masalan, quvnoq baliqcha, xafa boʻlgan baliqcha, jahli chiqqan baliqcha va h.z.; Quvnoq olmaxon, xafa boʻlgan olmaxon, jaqli chiqqan olmaxon). Rasmlar soni bolalarning soniga mos kelishi kerak. Boshlovchi bolalarga biror bir hissiyot tasvirlangan tasvirni koʻrsatadi (yoki uni oʻzi tasvirlaydi, soʻz bilan ifodalaydi, vaziyatni ifodalaydi). Bolalarning vazifasi: rasmlar ichidan ushbu his-tuyfgʻu tasvirlangan hayvon rasmini topish.

53-Mashgʻulot

Maqsad: Shaxslararo munosabatlarni yaxshilash, guruh aʼzolarining orasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish, diqqatni rivojlantirish.

“Qoʻl egasini top” mashqi.

Bu oʻyinda bolalar saf tortib turadilar. Bir bola boshqalarga orqasini oʻgirib kaftini ochgan holda qoʻltigʻi tagidan qoʻlini uzatib turadi. Navbat bilan bolalar kelib uning qoʻlini qisadilar va u bolalarga yuzlanib ularning yuz ifodalari va mimikalari orqali kim qoʻlini qisganini topishi kerak.

“Sovgʻa” mashqi.

Bolalar aylana boʻlib oʻtiradilar. Bir bola, gapirmasdan mimikalar, pantomimika orali tushuntirib ikkinchisiga sovgʻa topshiradi. Ikkinchisi sovgʻa uchun tashakkur bildiradi. Oʻyin shu tariqa davom etadi.

Soʻngra “qaysi sovgʻa koʻproq yoqdi va nimaga. Sizga koʻproq sovgʻa olish yoqdimi yoki berishmi” kabi savollar orqali oʻyin tahlil qilinadi.

“Qurilish” mashqi

Guruhga har xil rangdagi va oʻlchamdagi kubiklar va konstruktor boʻlaklari solingan savat beriladi va biror bir narsa qurish taklif etiladi. Bunda ikki shartga amal qilish talab etiladi: birinchidan, qurishda barcha qismlardan foydalanish; ikkinchidan barcha guruh aʼzolari bir-birlariga yordam berishlari kerak. Mashq davomida bolalardan nimalarni his qilayotganlarini, oʻzlarining guruhdagi oʻrni va guruh aʼzolari haqida qanday fikrda ekanligini muhokama qiladilar.

“Nima bilan bir-birimizga oʻxshaymiz” mashqi.

Bolalar aylana boʻlib oʻtiradilar. Boshlovchi oʻrtaga oʻziga nimasi bilandir oʻxshash boʻlgan ishtirokchilarning birini taklif etadi. Masalan: Umida, sen oʻrtaga kel, chunki bizning sochimizning rangi bir xil (yoki biz bitta partada oʻtiramiz va boshqa). Umida oʻrtaga keladi va ishtirokchilardan birini shu tariqa taklif etadi. Oʻyin guruh aʼzolarining barchasi oʻrtaga toʻplangunga qadar davom etadi.

54-Mashgʻulot

Maqsad: Bolalarning fikrlashi, diqqat, xotira, nutq, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

“Buni qanday qoʻllash mumkin”

Bolalarga imkon qadar koʻp hollarda ishlatilishi mumkin boʻlgan predmet nomini ayting. Har bir bola oʻz uslubini taklif qilishiga erishing. Masalan: Siz qalam soʻzini aytishingiz mumkin. Uni ishlatish yoʻllari turlicha boʻlishi mumkin: rasm chizish, yozish, koʻrsatkich sifatida va hokazo.

“Tovushlarni aniqla”

Bolalar aylana bo'lib o'tiradilar, Bolalardan biri yetaklovchi bo'ladi. U boshqa o'yinchilarga nisbatan teskari turadi. Shu vaqtda bolalardan biri qisqacha (2-3 so'zdan iborat) gap aytadi, masalan, Oltin kuz keldi. Yetaklovchi bu gapni kim aytganligini tovushidan aniqlashi kerak. Har bir bola etaklovchi bo'lib chiqishi kerak.

“Xatolarni to'g'rilaymiz”

Bolalar aylanaga turadilar. Olib boruvchi turli xatolari bo'lgan gapni aytadi. Bunday gaplar har bir bolaga taqdim etiladi. Qaysi bola gapda xato topolmasa o'yindan chiqadi. Oxirida qolgan bola g'olib hisoblanadi. Masalan, Archa daraxtida olmalar pishdi. Osmonda uchta zog'ora baliq uchyapti.

“Umumiylikni izlash”

Bolalar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi bolalardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan 2 ta so'zni aytadi. Masalan: maktab va o'qituvchi, kitob va javon, quyosh va gul va hokazo. To'pni tutib olgan bola so'z juftligi orasidagi umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi.

55-Mashg'ulot

Maqsad: Bolalarning xotirasi, diqqati, idrokini rivojlantirish.

“Kim sinchkovroq”

O'yin ishtirokchilari yarim doira bo'lib o'tiradilar va yetaklovchi tanlaydilar. Yetaklovchi 1-2 daqiqa ichida o'yin ishtirokchilarining joylashish tartibini eslab qolishi kerak. So'ng teskarisiga qarab ularni nomma-nom eslaydi. Har bir bola yetaklovchi bo'lib chiqishi shart.

“To'rtinchisi ortiqcha”

Bolalar aylana bo'lib o'tiradilar. Olib boruvchi biron bir bolaga to'pni otib, uchta bitta umumiy tushunchaga ega bo'lgan 4 ta predmet nomini aytadi. Bola shulardan bitta ortiqchasini aytib, to'pni qaytarishi kerak (masalan, kitob, daftar, qalam, deraza).

“Ayg'oqchi”

Biron bir bolani bir necha daqiqaga xonadan chiqib turishini taklif eting. Shu vaqtda xonada qolgan bolalar oralaridan bir bolani tanlab qo'yadilar. Shundan so'ng tashqaridagi bola kirib, o'yinchilarga teskari turadi va tanlangan bolani tashqi qiyofasi bo'yicha savollar beradi. Savollar soni 1-3 tagacha bo'lishi mumkin. Savollarga javob olgandan so'ng "ayg'oqchi" bolalar kimni tanlashganini aytib berishi kerak. Har bir bola "ayg'oqchi" bo'lib chiqishi kerak.

“Kim ko'p”

Bolalarga 1 daqiqa davomida xonani aylanib, atrofni kuzatish taklif etiladi. Asosiy vazifa doira shaklidagi predmetlarni topib, eslab qolishdan iborat. So'ng barcha bolalar aylana shaklida o'tiradilar va navbatma-navbat eslab qolgan predmetlarning nomlarini aytishadi. Birona so'z aytmagan bola o'yindan chiqadi. Oxirida doira shaklidagi predmet nomini aytgan bola g'olib deb topiladi.

56-Mashg'ulot

Maqsad: Bolalarning og'zaki nutqini, predmetlarni guruhlashtirishni, umumlashtirishni rivojlantirish.

“Jumlani tugat”

Bolalar aylana bo'lib o'tiradilar. Boshlovchi ularning biriga koptokni otadi va jumlaning boshlanishini aytadi. Koptokni olgan bola gapni tugatishi va koptokni boshlovchiga qaytarishi kerak.

O'yin shu tariqa davom etadi. Ikki marta gapni tugallay olmagan bola o'yindan chiqadi va boshqalarni diqqat bilan kuzatib turadi.

Kechasi qorong'i, kunduzi esa
Qishda sovuq, yozda esa
Qush uchadi, ilon esa
Ertalab nonushta qilamiz, kunduzi esa
Xo'roz qichqiradi, mushuk.

57-Mashg'ulot


"Mantiqsiz tasvirlar"

Ko'rsatma: 1-rasmda tasvirlangan ko'rinishlar bolaga tavsiya qilinadi, unda hayvonlar bilan bog'liq bir qancha "mantiqsiz" hodisalar mavjud. uch daqiqa vaqt beriladi. Bolaga rasmni ko'rsatish jarayonida, unga quyidagi ma'noda ko'rsatma ya'ni instruksiya beriladi: "Diqqat bilan ushbu rasmdagi tasvirlarni ko'rib chiqib hamda bizga shuni aytchi, rasm hamma narsa o'z joyida chizilganmi va ushbu obyektlar to'g'ri tasvirlanganmi. Agar sen qaysidir obyektни o'z joyida tasvirlangan emas deb hisoblasang, nima uchun shunday bo'lish kerakligini tushuntirib ber va sen bizga aytchi aslida qanday bo'lishi kerak". Ko'rsatmaning ikkala qismi ham ketma - ketlik bilan bajariladi. Birinchi navbatda bola mantiqsizliklarni aytib beradi va rasmlarda ko'rsatib beradi, so'ngra haqiqatdan qanday bo'lishligini izohlab beradi.



“Chigal chiziqlar”

Sinaluvchiga ko'rsatma: Qarshingizdagi har bir chigalchizining o'ng tarafdagi uchini toping, bo'sh katta tegishli raqamni qo'ying. Ishni 1 - chiziqdan boshlang, undan so'ng 2 - 3 va h.k. Chiziqlarning oxirini toping. Topshiriqni tezroq bajarishga harakat qiling.



59-Mashg'ulot

“Labirintdan chiqish, yo‘lini top”

Ushbu topshiriqda bolalarga 8-rasm ko‘rsatilib, topshiriqda labirintning tasvirlanganligi, unda strelka bilan labirintga kirish nuqtasi va chiqish joylari ko‘rsatilganligi tushuntirib o‘tiladi. Bunda bola uchli tayoqchani olib, rasm ichidan yurgizib, labirintdan imkoni boricha tez chiqib ketishi qamda tayoqchani imkoni boricha aniq yurgizib, labirint devoriga tegib ketmasligi kerak.

Bola tomonidan mashg'ulot 45 soniyadan 120 soniyagacha bajarilishi shart.




60-Mashg'ulot

“Kimligini topib ko'rchi”

Maqsad: Bolalarning idrokini o'rganish.

Ko'rsatma: Bunda bola rasmning bir necha qismlari yordamida butun rasm qanday ekanini bilishi talab qilinadi.

Mashg'ulot quyidagi tartibda o'tkaziladi: Bolaga rasmning A qismi ko'rsatiladi va asosida rasmda nima tasvirlanganini topish taklif etiladi. Buning uchun 10 soniya vaqt beriladi. Agar bolalar bu vaqt ichida nima tasvirlanganini topa olmasa yana 10 soniyaga unga rasmning B qismi ko'rsatiladi. Shu tariqa rasm qismlari to bola unda nima tasvirlanganini bilmaguncha ko'rsatiladi.



61-Mashg'ulot "Kimga nima yetishmayapti"

Maqsad: Bolalarning tafakkurini o'rganish.

Ko'rsatma: Avval bolaga hozir unga bir necha rasm ko'rsatilishi, ularda tasvirlangan bolalarda nimadir yetishmasligi, berilgan narsalar orasidan yetishmayotganlarini topish zarurligi tushuntiriladi. Bolaning vazifasi- rasmlardagi bolalarga yetishmayotgan narsalarni berilgan narsalar ataridan topish.



QO'SHIMCHA O'YIN VA MASHQLAR

“Xuddi shunday rangdan top”.

Maqsad: O'quvchilarning idrok va diqqatini rivojlantirish.

Ishning borishi: Stol ustiga shakli, rangi bir xil bo'lgan lekin o'n ikki bo'lakka bo'lingan to'rt burchak shakli yoyib qo'yiladi. O'quvchilar ana shu 12 ta shaklni bir – birining yoniga qo'yib bir minut vaqt ichida 4 burchak shaklini yasashlari lozim.

“Hammaga yetadimi?”

Maqsad: O'quvchilar tafakkurini o'stirish

Ishning borishi: O'quvchilarga hayvonlar rasmi va ozuqalari tasvirlangan rasmlar ko'rsatiladi. O'quvchilar qaysi hayvonga ozuqa yetmasligini topib ko'rsatishlari kerak.

“Sen ayiqning o'rnini qanday joylashtirgan bo'lar eding?”

Maqsad: O'quvchilarning diqqatini va tafakkurini o'stirish

Ishning borishi: Stol ustiga tartibsiz ravishda, ayiqchaning uxlashi, badan tarbiya mashqlarini bajarishi, yuvinishi, o'qishi, o'ynashi va nonushta qilishi tasvirlangan rasmlar aralashtirib qo'yiladi. O'quvchilar tartib bilan rasmlarni o'z o'rniga qo'yib joylashtirishlari kerak.

“O'xshashini olib kel”

Maqsad: O'quvchilarning esda saqlash xotirasini o'stirish.

Ishning borishi: Turli o'yinchoq va buyumlarning tasvirlangan rasmlari o'quvchilarga tarqatiladi. O'qituvchi yoki psixolog tomonidan o'yinchoq yoki biror buyum tasvirlangan rasm bir-ikki sekund ichida ko'rsatilib olib qo'yiladi. O'quvchi ko'rsatilgan rasمنى xotirasida saqlab, stol ustida qo'yilgan rasmlar orasidan topib ko'rsatishi kerak.

“Bu qanday hayvon?”

Maqsad: O'quvchilar xotirasini rivojlantirish.

Ishning borishi: O'qituvchi o'quvchilarga echki, buzoq, qo'y, bo'taloq, ot, ho'kiz rasmlarini tarqatib chiqadi. O'qituvchi hayvonlarning ovozigacha taqlid qilib, ovoz chiqaradi, o'quvchilar esa, eshitilgan ovozni tanib, shu hayvon tasvirlangan rasمنى ko'taradi.

“Ajoyib xaltacha”

Maqsad: O'quvchilarning sezgi, idrokini o'stirish.

Ishning borishi: Psixolog xaltachaga turli sabzavotlarni soladi: sabzi, piyoz, kartoshka, sholg'om, turp, karam. O'quvchilarning ko'zlari bog'lanadi, barmoqlari, kaftlari va qo'llari yordamida paypaslab sabzavotlarni topib, nomi nima ekanligini aytganlaridan so'ng, sabzavot xaltachadan olinadi. Sabzavot nomini to'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

“Nima yetishmaydi?”

Maqsad: O'quvchilar idrokini o'stirish.

Ishning borishi: Turli xil buyumlar va ularning bo'lagi tasvirlangan rasmlar, masalan, choynakning qopqog'i yo'q, stolning bir oyog'i yo'q. Stolning ustiga rasmlarning teskari tomoni o'girib qo'yiladi, detallarning esa o'ng tomoni qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchini chiqarib, rasmlarning birini olishni taklif etadi. O'quvchi olgan rasmdagi narsaning nomini aytadi va rasmda yetishmaydigan detall qismini olib ko'rsatadi.

“Buzilgan telefon”

Maqsad: O'quvchilarning eshitish sezgisini rivojlantirish.

Ishning borishi: O‘quvchilar aylana shaklida o‘tiradilar. Birinchi partadagi o‘quvchining qulog‘iga sekin bir so‘z aytiladi.

Oxirgi partada o‘tirgan o‘quvchi shu so‘zni baland ovoz bilan aytishi kerak. Agar so‘z to‘g‘ri aytilgan bo‘lsa, telefon yaxshi ishlaydi. So‘z xato aytilsa, telefon buzilgan, uni tuzatish kerak ya‘ni telefon qayerda buzilganligi aniqlanadi.

“Kim chaqirdi?”

Maqsad: O‘quvchilarning sezgi, idrokini rivojlantirish.

Ishning borishi: O‘quvchilar doira shaklida o‘tiradilar. Bolalarning biri ko‘zini yumib yoki orqasini o‘girib turadi. O‘quvchilarning biri uning ismini aytib chaqiradi. Ko‘zini yumib turgan bola qaysi o‘quvchi uning nomini chaqirganini topishi kerak.

“Ta‘midan top”

Maqsad: O‘quvchilarning sezgi, idroklarini o‘stirish.

Ishning borishi: Stol ustiga to‘g‘ralgan meva va sabzavotlar likopchada qo‘yiladi. O‘quvchilar diqqat bilan o‘tirishadi. O‘qituvchi bolalarga likopchalarda meva yoki to‘g‘rab qo‘yilgan sabzavotlardan totib ko‘rib, ta‘mini aytib berishini taklif etadi. Shundan so‘ng o‘quvchilardan biri ko‘zlarini yumib turadi, ikkinchi o‘quvchi uni mehmon qiladi. Bola mevaning ta‘mini totib ko‘rib, uning nomini aytib beradi. Bu o‘yin orqali bolalarning sezish, idrok qilish jarayoni rivojlanadi.

“Bu qachon bo‘ladi?”

Maqsad: Yil fasllarining o‘ziga xos belgilari to‘g‘risidagi tasavvurlarini mustahkamlash.

Jihoz: Qog‘oz shakli to‘rtga bo‘linadi. Har bir qismida yilning 4 ta fasli tasvirlangan bo‘ladi.

Ishning borishi: Bola psixologning iltimosiga ko‘ra, har bir faslning o‘ziga xos xususiyatlarini, ta‘rifini aytadi.

“Kerakli rasmni top”

Maqsad: Narsalarning nomini, va nima uchun ishlatilishini, joyini aniqlashga o‘rgatish. Bolalarning tafakkurini o‘stirish.

Jihoz: Ish mazmuni aks ettirilgan rasm. Ertalabki yuvinish, kiyinish, ovqatlanish kabi faoliyatlar aks ettirilgan mazmunli rasm bo‘lishi mumkin.

O‘yinni o‘tkazish: mazmunli rasmlarning birortasi bolalarga ko‘rsatiladi. Rasmlarda nimalar aks ettirilganligini bolalar yaxshilab ko‘rib olganlaridan so‘ng, biror bolaga rasmlarni stol ustiga qo‘yib chiqish so‘raladi. Rasmlarni qo‘yib chiqqandan keyin, bolalarning birortasi chaqirilib, rasmda aks ettirilgan faoliyat haqida so‘zlab berishni va stol ustiga qo‘yilgan har bir buyumning nomini aytishni taklif etadi.

“Uchadi, uchmaydi”

Maqsad: Eshitish sezgisini, mantiqiy tafakkur va idrokni rivojlantirish.

Masalan: chumchuq – uchadi

ilon – uchmaydi

sigir – uchmaydi

bedana – uchadi

O‘yinning borishi: bolalarga biror hayvon nomi aytiladi, bolalar aytilgan hayvon harakatini bajarib ko‘rsatadilar, uchmaydigan hayvon nomi aytilsa, jimgina o‘tiradilar.

« Kim chaqqon »

Maqsad: Ko‘rish, harakat sezgilari, rangni va fazoviy munosabatlarni idrok qilish tushunchalarini rivojlantirish.

Ishning borishi: Stol ustiga 12 ta shakl tartibsiz holda yoyib qo‘yiladi. Shakllar har xil rangda va kattalikda bo‘lishi kerak. O‘qituvchi bolalarning birini chaqirib shaklni tez topib berishni taklif etadi, shaklni tez topgan bola uni baland ko‘tarib, uning nomini va nima uchun to‘rt burchakligini, rangini, katta- kichikligini aytadi. O‘yin oxirida g‘oliblar aniqlanadi.

“Kim chaqirdi”

Maqsad: Bu o‘yin orqali bolalarning eshitish sezgisini va idrokini rivojlantirish.

Ishning borishi: Bolalar doira shaklida o‘tiradilar, bolalardan birortasi ko‘zini yumib yoki orqasini o‘girib turadi, o‘quvchilardan birortasi shu o‘quvchining nomini aytib chaqiradi. Ko‘zini yumib turgan bola qaysi bola uni chaqirganini topa olishi kerak.

“Kimning qo‘lida nima bor?”

Maqsad: O‘quvchilarning sezgi, idrokini rivojlantirish.

Ishning borishi: Psixolog bolalarning doira bo‘lib, qo‘llarini orqalariga qilib turishlarini taklif etadi va qo‘llariga olma, behi, sabzi, nok qo‘yadi. Kimda olma bo‘lsa, meni oldimga yugurib kelsin deydi.

Shu tariqa biror bir mevaning nomi aytilganda, bolalar birin – ketin psixolog yoniga keladilar, o‘yin shu tarzda davom etadi.

“Tez javob ber”

Maqsad: Tafakkur turlarini rivojlantirish

Ishning borishi: (Bu o‘yinni o‘n yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan o‘tkazish mumkin.) Psixolog bilan bolalar davra bo‘lib o‘tiradi. Qo‘lidagi koptokni bolalarning biriga tashlab predmetning rangi yoki formasi, xususiyatlaridan birining nomini aytadi. Bola esa bunga mos biror so‘zni tanlab koptokni qaytarib beradi.

Masalan: yashil – barg, o‘t, aylana – oy, quyosh. Bolalar o‘yinni o‘zlashtirgach qo‘shimchalar kiritish mumkin.

«Uchta predmetning nomi»

Maqsad: Tafakkurning umumlashtirish jarayonini rivojlantirish.

Ishning borishi: Psixolog va bolalar davra bo‘lib o‘tiradilar. O‘yinni olib boruvchi o‘yin qoidasini tushuntiradi.

Men hozir bir so‘z aytaman, sizlar shu so‘zga mos keladigan 3 ta so‘z to‘plashingiz kerak.

Masalan: mebel – stol, stul, divan. Gul – atirgul, chinnigul, lola.

O‘quvchilar o‘yinni o‘zlashtirgandan keyin unga o‘zgartirish kiritish mumkin yoki avval tarkibiy so‘zlarni aytishi, undan keyin umumiy so‘zlarni topishi kerak. Cho‘mich, qoshiq, qozon – oshxona buyumlari.

“Men ham”

Maqsad: Mantiqiy tafakkur va idrokni rivojlantirish.

Ishning borishi: O‘qituvchi biror ertakni yoki hikoyani tanlaydi va bolalarga tushuntiradi. Hozir men sizlarga ertak aytib beraman. Sizlar ham ertakni qahramonlari bilan qo‘shila olsangiz «Men ham» deb aytasiz. Bo‘lmasa jimgina o‘tirasiz. Pedagog men daladan gul terayapman, tovuq 5 ta jo‘jasi bilan men tomonga kelayapti. Shu payt kalxat keldi.

Tovuq jo‘jalari bir tomonga, men esa boshqa tomonga qochdim. Har bir gapdan keyin pedagog pauza qiladi, ya’ni bolalarning fikrlashi uchun sharoit yaratishi kerak.

“Sharning ipini top”

Maqsad: Bolalarni ranglarni ajratishga o‘rgatish.

Mashg‘ulot jihozi: Qog‘ozdan qirqilgan har xil rangdagi shakllar va shu ranglarga mos qog‘oz “ip”lar.

Ishning borishi: Stol ustiga sharlar va iplar alohida qo‘yiladi. Bolalarga sharlarni o‘z ipi bilan bog‘lash lozimligini tushuntiriladi va sharlarning ipini topish aytiladi.

“Kim birinchi bajaradi”

Mashg‘ulot jihoz: Ikki shishachada rangi bir xil bo‘lgan 48 dona toshcha yoki tugmacha solib qo‘yiladi.

Maqsad: O‘quvchilarning irodasini tarbiyalash.

Ishning borishi: Ikki bola yuzma – yuz qilib stolga o‘tqaziladi. Har biriga shishacha va 24 dona toshcha beriladi. Toshchalarni shishachaga bir donadan solishlari kerak. Sinfdagi boshqa bolalar ular ishini kuzatib turadi. Ishni kim birinchi tugatsa, g‘olib hisoblanadi. O‘yin shu tariqa davom ettiriladi.

“Kim aqli”

Maqsad: Qo‘l motorikasini rivojlantirish

Ishning borishi: Ikki quti gugurt stol ustiga qo‘yiladi. Ikki bola qarama-qarshi tarzda stolga o‘tiradi. Gugurt donalari tartibsiz ravishda yoyib qo‘yiladi. Gugurt donalarini tartib bilan qutiga solish vazifasi topshiriladi. Qaysi bola gugurt donalarini tartib bilan joylashtirsa, tafakkur jarayonining yaxshi rivojlanganlik darajasini bildiradi. Bu o‘yin orqali bolalarning ishchanlik qobiliyatlari rivojlantiriladi.

“Bu nimaning rasmi edi”

Maqsad: Idrokni rivojlantirish.

Jihoz: Mushuk va itning to‘rt bo‘lak qilib qirqilgan rasmlari.

Ishning borishi: Ikki bola stolda qarama – qarshi tarzda o‘tiradi, stolda qirqilgan rasm bo‘laklari aralashtirib qo‘yiladi. Bolalarning har biriga mushuk va itning rasmini bo‘laklardan tiklash so‘raladi. Kim rasmini birinchi bo‘lib tiklasa, o‘sha bola g‘olib hisoblanadi. Bu o‘yin orqali bolalarning sezgi, idrok, diqqati rivojlanadi.

“Nima o‘zgardi”

Maqsad: Xotira, diqqat, sezgini rivojlantirish.

Ishning borishi: Stol ustiga yoki doskaga bir necha rasm qo‘yiladi. Bolalarga rasmlarni yaxshilab ko‘rishlari va eslab qolishlari aytiladi. Keyin bolalar ko‘zini yumib turadi, shu vaqtda rasmning bir yoki ikkitasining o‘rni o‘zgartirib qo‘yiladi.

Savol: Nimaning o‘rni o‘zgardi? Bola shuni topib, eslab qaysi rasmning o‘rni o‘zgarganini aytishi lozim.

“Yanglishma”

Maqsad: Bolalarning diqqati, esda saqlab qolishi va qayta esga tushirish jarayonlarini rivojlantirishga o‘rgatish.

Ishning borishi: Psixolog va bolalar davra bo‘lib o‘tirishadi. Doskaga ikki o‘quvchi chiqariladi. Bir o‘quvchi ikkinchi o‘quvchini boshdan oyoq kuzatib, uning kiyimlari qanaqa ekanligini va nomini ovoz chiqarib aytadi. O‘rtog‘ining kiyimlarini kuzatgan bolaning ko‘zi bog‘lanadi u orqa o‘girib turadi. Esda saqlab qolgan narsalarning nomini aytishi lozim. O‘quvchilar uni kuzatib, tekshirib turadi va “to‘g‘ri”, “noto‘g‘ri” deb tasdiqlab turadi. O‘quvchi uch marta yanglishsa, o‘rniga boshqa o‘quvchi chiqariladi va o‘yin davom ettiriladi.

“Bu kim”

Maqсад: Sezgi, diqqatni rivojlantirish.

Ishning borishi: Psixolog va bolalar davra bo‘lib o‘tiradi. O‘rtaga bir bola chiqariladi, o‘rtoqlarini yaxshilab kuzatgandan so‘ng orqa o‘girib turadi.

Psixolog bolaga, men hozir o‘rtoqlaringdan birini kiyimining belgilarini aytaman, sen mening aytganlarimni yaxshilab eshitib, men kim haqida gapirayotganligimni topishing kerak, deydi. Masalan, sochi sariq, shapkasi oq, ko‘ylagi qizil.

Agar bola uning kim ekanligini topa olmasa, o‘rni almashtiriladi. Uch marta topgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

XULOSA

Ushbu dastur orqali umumta'lim muassasalarida inklyuziv hamda boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchi-qizlarning maktabga moslashishi uchun maxsus psixologik korreksion rivojlantirish maqsad qilib olingan.

Dasturdan o'rin olgan mashg'ulotlar bolalarning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o'qish, yozish malaka va ko'nikmalarini boyitib borish kabi aqliy imkoniyatlarining ta'lim talablariga munosib tabiiy shakl, o'yinlar yordamida rivojlantirib borishni ta'minlaydi.

Inklyuziv sharoitda ta'lim olayotgan o'quvchi-qizlarning maktabga moslashishi uchun maxsus psixologik korreksion rivojlantirish uchun maxsus mashg'ulotlar berilgan.

Korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlar majmuasi asosida amalga oshirilgan ishlar 1-sinfga qabul qilingan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchi qizlarning yanada chuqur bilim olishda malaka va ko'nikmalar hosil qilishiga turtki bo'ladi degan umiddamiz. Shuningdek, amaliyotchi psixologlarga o'z amaliy faoliyatlarini tashkil etishda yordam berib, ularning psixologik metodikalarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlarni o'tkazib borish jarayonida o'quvchilar bilan samimiy, erkin muloqotda bo'lish, ularni shoshirmasdan to'g'ri tushuntirib borish, o'yin tariqasidagi tabiiy muhitni yaratish, bolalarning qobiliyatlarini xolisona tarzda baholash muhim omillardan biri bo'lib sanaladi. Bolalarning maktabga psixologik moslashuvi va rivojlanish dinamikasini o'rganish maqsadida ushbu korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlarining natijalariga tayanish mumkinligi diqqatga sazovordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.
3. “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. “Lesson-Press” nashriyoti, Toshkent-2021.
4. “Barmoqlar mashqi va logopedik o‘yinlar” metodik qo‘llanma Toshkent “Yangi asr avlodi” 2007.
5. K.K.Mamedov, R.B.Shoumarov, V.L.Podobed “Ruxuy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida”. Toshkent-1993-y.
6. Y.M.Asadov “Psixologik salomatlik maktabi” maktabga qabul qilingan olti yoshli bolalar uchun korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar dasturi” Toshkent-2004-y.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	3
INKLYUZIV SHAROITDA TA‘LIM OLAYOTGAN O‘QUVCHI-QIZLARNING MAKTABGA MOSLASHISHI UCHUN MAXSUS PSIXOLOGIK KORREKSION RIVOJLANTIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGINING O‘RNI	5
MASHG‘ULOTLAR	7
QO‘SHIMCHA O‘YIN VA MASHQLAR.....	38
XULOSA	43
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:	44

Inklyuziv sharoitda ta'lim olayotgan o'quvchi-qizlarning maktabga moslashishi uchun maxsus psixologik korreksion rivojlantirish dasturi

(boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda psixologlar uchun)

Muharrir: M.Talipova

Musahhih: I.Tursunova

Kompyuterda tayyorlovchi: G.Ibragimova

Bosishga ruxsat etildi 28.12.2022.
Qog'oz bichimi 60x84^{1/8}. TIMES garniturası
Shartli bosma tabog'I 4,2. Nashr tabog'i 6,7
Adadi 1000. Buyurtma № 15-12.

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti
Toshkent, Komolon ko'chasi, Erkin tor ko'chasi, 13

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko'chasi, 6-uy.